

10- sinf uchun 2 - BSB

(amaliy)

Ommaviy qirg'in qurolidan himoyalaniş bo'yicha baholash mezonlari.

Me'yor. (mashq)	Me'yorning nomlanishi (mashq)	Me'yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Ballar		
			“25 ball”	“20 ball”	“15ball”
Ommaviy qirg'in qurolidan himoyalaniş bo'yicha					
1	Gazniqob yoki respirator kiyish	O‘quvchilar “yurish” holatida bo‘linma tarkibida Jangovar marrada, Jangovar yoki boshqa maxsus texnikada, Jangovar harakatlarni olib borishmoqda yoxud dam olishmoqda. Gazniqob va respiratorlar ham “yurish” holati tartibida. Kutilmaganda “Gazlar” yoki “Respirator kiyilsin” komandasi beriladi. O‘quvchilar gazniqob va respiratorlarni kiyishadi. Vaqtini hisoblash komandasi berilgan lahzadan to gazniqob (respirator) kiyilib, nafas olish qayta tiklanib, bosh kiyimi kiyilgunga qadar davom etadi.	7s /11s	8s /12s	10s /14s

		Eslatma. Kasr chizig‘i yuqorisida gazniqobni kiyish vaqti, pasida respiratorni kiyish vaqtlari ko‘rsatilgan. Bahoni 5 ballga tushiradigan xatoliklar. 1. Gazniqob kiyishda o‘quvchi ko‘zlarini yummasa, nafas olishni to‘xtatmasa – kiyib bo‘lgandan so‘ng to‘liq nafas chiqarilishini amalga oshirmasa. 2. Shlem-niqob qiyshiq kiyilgan bo‘lsa yoki ulovchi nay bo‘shab ketgan bo‘lsa. 3. Respiratorning qisqichi burunni mahkam siqib ushlab turmasa. “0 ball” qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar. 1. Gazniqob shlem–niqobga tashqaridan havo kiradigan darajada qiyshiq kiyilsa yoki shlem-niqob chetlari buklanishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. 2. Ulovchi nayning gaykasi oxirigacha qotirilmagan bo‘lsa			
Me‘yor. (mashq)	Me‘yorning nomlanishi (mashq)	Me‘yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Baho		
			“25ball”	“20 ball”	“15 ball”
4	Harbiy himoya to‘plami, himoya plenkali kostumni va gazniqobni kiyish	O‘quvchilar bo‘linma tarkibida zararlanmagan joyda (Jangovar harakatlarni olib borish hududida, panagohda yoxud yopiq turdagi harbiy texnikada) turishibdi, himoya vositalari o‘quvchilarda. a) “Yengli plash, paypoq va qo‘lqop kiyilsin”, “Gazlar” komandasiga ko‘ra o‘quvchilarda himoya plashi, qo‘lqopi, paypog‘i va gazniqobni kiyib boshlaydilar	3 daq. 30 s.	4 daq.	4 daq. 30 s
		Eslatma. Havo zaharlanishi holatida gazniqob birinchi navbatda kiyiladi.			

		b) “Himoya plashi, qo‘lqop, paypoqlar-kiyilsin”, “Gazlar” komandasiga ko‘ra o‘quvchilar himoya plashi, qo‘lqopi, paypog‘i va gazniqobni kombinezon ko‘rinishida kiyib boshlaydilar.	4 daq. 35 s.	5 daq.	6 daq.
		Me’yorni bajarish uchun vaqtni hisoblash komanda berilgan lahzadan to harbiy himoya to‘plami (himoya plenkali kostumni) to‘liq kiyib bo‘lguniga qadar davom etadi. Bahoni 5 ballga tushiradigan xatoliklar: 1.Himoya vositalarini kiyishda ba’zi qismlarni kiyish to‘liq amalga oshirilmasa. 2.Gazniqobni kiyishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. “0 ball” qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar. 1. Ikkita va undan ortiq qisqichli tugmalar qadalmagan bo‘lsa. 2. Gazniqobni kiyishda “0 ball” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. (№ 1-me’yor).			

Izoh: o‘qituvchini ko‘rsatmasiga ko‘ra 4a yoki 4b me’yor (mashq)lari bajariladi